

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalariga

Qurʼon-İshratning 1997-yil 15-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalariga qo'shilgan 70211002 – Musiqa san'ati magistratura mutaxassisligining malaka talablari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalariga qo'shilgan 70211002 – Musiqa san'ati magistratura mutaxassisligining malaka talablari

JURISTIKA TAKMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalariga qo'shilgan

**70211002 – Musiqa san'ati magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Masher Malaka uchun "Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalariga qo'shilgan 70211002 – Musiqa san'ati magistratura mutaxassisligining malaka talablari" O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy vazirligining qarriy qo'shilgan va rasmiy tashrif qilinib turishini hisobladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy vazirligi sharoitli hisobiga O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy vazirligiga tegishlidir.

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabni rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

bet

1.	70211002 – <i>Musiqa san'ati</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	
1.2.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi	4
1.2.1.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70211002 - <i>Musiqa san'ati</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yildigan talablar.....	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	<i>Bibliografik ma'lumotlar</i>	8
	<i>Kelishuv varag'i</i>	9

1. 70211002 - *Musiqa san'ati* magistratura mutaxassisligining umumiyl tavsifi

70211002 - *Musiqa san'ati* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70211002 - *Musiqa san'ati* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70211002 - *Musiqa san'ati* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan magistriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70211002 - *Musiqa san'ati* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70211002 - *Musiqa san'ati* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

70211002 - *Musiqa san'ati* – san'at sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chikarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarda, oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, ta'lim muassasalarida ilmiy pedagogik, o'rta maxsus, kasb- xunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik (o'rnatilgan tartibda) faoliyat bilan shug'ullanish, ilmiy ijodiy-tadqiqot ishlari kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70211002 - *Musiqa san'ati* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimi tashkilotlari;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy- tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, san'at sohasi boshqaruv organlarda boshqaruv ja-rayonlari;

- xalq ta'lifi vazirligi tizimi muassasalarini va tashkilotlari;
- san'at tizimidagi akademik, ilmiy – tadqiqot muassasa va tashkilotlari;
- musiqa san'ati jarayonlari, mumtoz musiqa namunalari, o'tmis allomalar qo'lyozmalari;
- musiqa cholg'ulari, musiqaning ifoda vositalari, texnik vositalar, resurslar, usul va uslublar majmuasi;
- ilmiy – tadqiqot jarayonlari

1.2.3. 70211002 - *Musiqa san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistrler kasbiy faoliyatlarining turlari*

- ilmiy-tadqiqot faoliyat;
- ilmiy-ijodiy-ma'rifiy faoliyat;
- ijrochilik faoliyat;
- tizimli-kommunikativ faoliyat;
- o'quv-uslubiy faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;
- oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik faoliyat;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);
- konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. 70211002 - *Musiqa san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:*

70211002 - Musiqa san'ati mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihamalarini tahlil qilishi;
- Musiqa san'ati sohasidagi amaliy masalalarini yechish uchun yangi texnologiyalar va dasturlar paketlarini qo'llashi;
- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihamari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, uslublarni tadqiq qilishi va ishlab chiqishi;
- eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalarini qayta ishlashi;
- ilmiy-ijodiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chikishi;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzishi;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-ijodiy konferensiyalarda ishtirok etishi;
- ilmiy-ijodiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlashi va chop ettirishi lozim.

Ilmiy-ijodiy-ma'rifiy faoliyatda:

- yuksak badiiy saviyadagi musiqiy asarlarni yaratish bilan bog'lik ilmiy-ijodiy ishlarni olib borishi;
- musiqa asarlarini ijro etish ko'nikmalarini va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallashi;
- ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini baholashi;
- kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarida rahbar va maslahatchi sifatida keng ko'lamda musiqiy-ma'rifiy ishlarni olib borishi, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuklarini targ'ib etishi;
- yoshlar orasida musiqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borishi, aholi tarkibidagi turli gurux va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olish lozim.

Tizimli-kommunikativ faoliyatda:

- axborotni izlash, tanlab olish, almashish va foydalanish uchun tizimlashning oqilona vositalarini qo'llashi, uning tekshiruvini va manbalarini tasniflashni yo'lga qo'yishi;

- ta'lim yo'nalishi va yondosh masalalar yuzasidan chop etilayotgan maxsus o'quv uslubiy va ilmiy adabiyotlarga tayanishi;
- o'quv-uslubiy, ilmiy-tadkikot va ilmiy-ijodiy faoliyatida qo'llaniladigan texnik vositalardan foydalanishi lozim.

O'quv-uslubiy faoliyatda:

- o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarni rejalashtirishi, tashkil qilishi va amalga oshirishi;
- o'quvchining o'zlashtirish darajasi va teranligini aniqlash va unga musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash ko'nikmalarini singdirishi;
- o'quv jarayonini hamda o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy-ijodiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirishi va joriy etishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- musiqa san'ati va musiqiy ta'lim sohasidagi tashkilot, bilim yurtlaridagi turli lavozimlarda rahbarlik qilishi;
- musiqiy, teatr-tomosha va boshqa san'at muassasalarida joriy va ustivor ishlarning rejalashtirishni tashkil etishi;
- musiqiy tadbirlar va ijodiy jarayonlarni nazorat kilishda ishtirot etishi lozim.

Oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik faoliyatda:

- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallashi;
- elektron o'qitish usullarini egallashi;
- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanim noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lган o'quv uslubiy hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda
- pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z o'zini muntazam takomillashtirib borishi;
- uzuksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirot etishi lozim.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- san'at sohasida mutaxassisligi bo'yicha mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqishi;
- musiqa ijodiyotida mutaxassisligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirotchi sifatida qatnashishi;
- mutaxassislikka mos mavzu bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatishi lozim.

2. 70211002 - Musiqa san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjalalar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- o‘z faoliyatida me’yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- musiqashunoslik yo‘nalishiga xos bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, musiqiy asar yoki manbalarni mustaqil taxlil eta olishi, musiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- O‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligi (o‘zbek musiqasining ustuvor asosi – Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, katta ashula va b.) – og‘zaki an'anadagi ustozona musiqani amaliy jihatdan o‘rganishi;
- Maqomot va zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bo‘yicha yaqin o‘tmish hamda zamonaviy ijodiyot namunalarini o‘rganish, taxlil etish, ilmiy jihatdan yondashish;
- O‘zbek maqomiga bevosita aloqador bo‘lgan Sharq xalqlari musiqasini, Sharq musiqashunosligrini mustaqil fan darajasiga ko‘targan ota-bobolarimizning yaratgan asarlarini (risola va qo‘lyozmalarini) o‘rganish, hamda maktab asoschilarini va davomchilarining ijodiy faoliyatini taxlil va targ‘ib etishi;
- manbashunoslukka oid bilimlarga ega bo‘lishi, tarixiy manbalarni tadbiq etish uchun maxsus (fors, arab, urdu) tillarni o‘rganish;
- O‘zbek bastakorlik ijodiyoti, tarixi, zamonaviylik tamoyillarini hozirgi kun nuqtai – nazari bilan taxlil etish mahoratiga ega bo‘lishi;
- Musiqiy uslublar tarixi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi; XIX asr o‘zbek va jahon musiqa madaniyatidagi ustuvor janrlar, uslublar bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- Musiqiy – nazariy fanlar (zamonaviy musiqa shakli, zamonaviy garmoniya, zamonaviy polifoniya, etnosolfedjio)ning zamonaviy ko‘rinishi, yangi uslub va g‘oyalarini o‘rganish, uning amaliyotdagi aksini taxlil qilish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ular dan ilmiy faoliyatida foydalana olishi; ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lishi;
- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanishi;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtiroy etish uchun loyiha tayyorlashi;
- patent olish uchun ish me’yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

- olingan bilim va ko'nikmalarga tayangan holda, mustaqil ravishda ilmiy maqolalar tayyorlab chop ettirishi, darslik, o'quv qo'llanma, monografiyalar nashr ettirish malakasiga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jahbasi, bakalavriatning ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, fan, texnika, tadqiqot, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, fan ishchi dasturlari, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, pedagogik texnologiyalar, axborot tizimlari, nutq madaniyati, san'atshunoslik, musiqa shunoslik, musiqiy manbalar, musiqa ilmi, maqomot, o'zbek musiqasi tarixi, solfedjio, garmoniya, polifoniya, jahon musiqasi tarixi, musiqa nazariyasi, musiqiy asarlar taxlili, musiqiy tahrir, dars berish uslubiyoti, milliy cholg'ular, shashmaqom, o'n ikki maqom, maqom yo'llari, mushkilot bo'limi, nasr bo'limi, maqom sho'balari, namudlar, avjlar, maqom ladlari, xalq kuylari, cholg'u ijrochiligi san'ati, sozandalik san'ati, yirik musiqiy asarlar, turkum asarlar, cholg'u tembri, obraz talqini, ijrochilik uslublari, ijroga mantiqiy yondashuv, musiqiy mavzular yaxlitligi, cholg'u turkumlari, ijodiy uslub.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati instituti



Rektor

O.Nazarbekov

202 yil " "

M.O.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi



Direktor v.b.

M.Esonov

202 yil " "

M.O.


O'zbek milliy maqom san'ati
markazi

Bosh direktori

S.Begmatov

202 yil " "

M.O.



O'zbekiston kompozitorlari va
bastakorlari uyushmasi

Rais

R.Abdullaev



202 yil " "

M.O.

O'zbekiston davlat
filarmoniyasi

Bosh direktori

Z.Zairov

202 yil " "

M.O.

